



UDK: 37.015.3:316.6:008.

Nuriddin AXMADIYEV,

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchi, PhD

E-mail: n_axmadiyev@gmail.com

FarDU dotsenti D.Normatova taqrizi asosida

JAMIYATNING MA'NAVYI TARAQQIYOTI VA YOSHLAR AXLOQIY TARBIYASI MASALASINING O'ZARO UYG'UNLIGI

Аннотация

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ulkan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-gumanitar sohalarida islohotlar jamiyat hayotining barcha tomonlarini qamrab olgan. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar odamlarni, jumladan, yosh avlodning qadriyatli mo'ljalinu tubdan o'zgartirib yubordi, ularning avvali e'tiqod meyorlari va qarashlari mazmun va mohiyat jihatdan o'zgardi. Hozirgi kunda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi ta'lim-tarbiya tizimida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Pedagog olimlar ma'naviy-axloqiy tarbiyani pedagogik tashkiliy jarayon, u talabaning ongiga, hissiyotiga va fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatadi, oliy darajadagi qadriyatlarni o'zlashtirishda, axloqiy qoidalarni shakllantirishda, ular asosida o'zining ichki olamini qayta qurishda hamda boshqalarning manfaatlarini hisobga olgan holda harakat qilishda qo'llaniladi. Ushbu maqolada jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti va yoshlar axloqiy tarbiyasi masalalarining o'zaro uyg'unligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Jamiyat va taraqqiyot, ma'naviy yuksalish, ta'lim va tarbiya, ijtimoiy rivojlanish, yoshlar tarbiyasi.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ВОПРОСА ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА И НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

Реформы в экономической, социально-политической и культурно-гуманитарной сферах, реализованные в годы независимости, охватили все стороны жизни общества. Политические и социально-экономические изменения коренным образом изменили ценности людей, в том числе молодого поколения, прежние убеждения и взгляды которых изменились по содержанию и сути. В настоящее время вопрос духовно-нравственного воспитания является одним из актуальных вопросов в системе образования. Ученые-педагоги рассматривают духовно-нравственное воспитание как педагогический организационный процесс, который воздействует на сознание, чувства и характер учащегося, усваивая ценности высокого уровня, формируя нравственные правила и перестраивая на их основе его внутренний мир, и используется в деятельности с учетом этого. интересы других. В данной статье рассматривается взаимогармония вопросов духовного развития общества и нравственного воспитания молодежи.

Ключевые слова: Общество и развитие, духовный рост, образование и воспитание, социальное развитие, образование молодежи.

HARMONY OF THE ISSUE OF SPIRITUAL PROGRESS OF SOCIETY AND MORAL EDUCATION OF YOUNG PEOPLE

Annotation

Reforms in the economic, socio-political and cultural-humanitarian spheres implemented during the years of independence covered all aspects of society. Political and socio-economic changes have radically changed the values of people, including the younger generation, whose previous beliefs and views have changed in content and essence. Currently, the issue of spiritual and moral education is one of the pressing issues in the education system. Scientists and educators consider spiritual and moral education as a pedagogical organizational process that affects the consciousness, feelings and character of the student, assimilating high-level values, forming moral rules and rebuilding his inner world on their basis, and is used in activities taking this into account. interests of others. This article examines the mutual harmony of issues of spiritual development of society and moral education of youth.

Key words: Society and development, spiritual growth, education and upbringing, social development, education of youth.

Kirish. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasining yuksalishi o'z-o'zidan ijtimoiy rivojlanishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Demak, yoshlar va ularning tarbiyasi xususida so'z ketar ekan, bu mamlakatning ijtimoiy rivojlanish yo'lidagi islohotlarga bevosita bog'liqdir. Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, ijtimoiy rivojlanish, avvalo muayan mamlakat aholisini hayot kechirish darajasi, moddiy farovonligi, turmush va oilalardagi tinchlik-osoishtalik bilan belgilanadi. "Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar halqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi ortib bormoqda"[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Insonning tarbiyasi erta yoshdan boshlansa, sermahsul bo'ladi. Aynan erta yoshdan shaxsning asosiy fazilatlarini shakllana boshlaydi. Bola qanchalik ulg'ayib borsa, uni qayta tarbiyalash shuncha qiyin kechadi. Yumshoq mumdan har narsa qilish mumkin, qachonki u qotib qolsa, kukunga aylantirish oson bo'ladi. Bu misoldan yosh bolani tarbiyalash ishlarini olib borayotgan jarayonda unumli foydalanish zarur.

Mustaqillikning dastlabki eng ahamiyatli va muhim davlat siyosati darajasidagi hujjat 1991-yilning 20-noyabrida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida" gi qonun bo'ldi. Unda yoshlar masalalariga e'tibor, yosh avlodni tarbiyalash va katta hayotga tayorlash, buning uchun tegishli xuquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy shart-sharoitlarni yaratish mustaqil O'zbekiston davlatining ustuvor vazifasi

ekanligi alohida ko'rsatildi. "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi", "O'quvchi yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risida"gi kabi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari barkamol avlodning jamiyat, davlatning rivojidagi roli, o'zni, ahamiyati salmoqli bo'ldi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan so'nggi yillarda qabul qilingan farmon va qonunlar bu boradagi ishlarni yuqori bosqichga ko'tarishda huquqiy va madaniy-gumanitar baza bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, mustaqilligimizning mustahkam tayanchlaridan biri muqaddas islom dinimiz bo'ldi. Islom dini, o'z mohiyati va rivojlanishi davomida diniy va dunyoviy bilimlarni qat'iy ravishda o'zaro xech qachon ajratmagan va qarama-qarshi qo'ymagan. Buni tarixdan, islom dini mutloq asosiy din va mafkuracha aylangan VIII-XI asrlarda ilm-fanni gullab yashnashidan yaqqol ko'ramiz. Ushbu asrlarda dunyo fani, madaniyati, tibbiyot taraqqiyotiga mislsiz hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz timsolida, Xorazmiy, Farobiy, Ibn sino, Beruniy va yuzlab buyuk ajdodlarimiz timsolida ko'ramiz. Bular o'zlarining ilmiy ijodi va faoliyatlarida diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'un holda rivojlantirganlar, shu bilan yosh avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishga bebaho hissa qo'shganlar.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi: "...har bir vatandoshlarimiz, ayniqsa yoshlar faqat islom dini to'g'risidagi emas, umuman, dunyodagi mavjud dinlar, ularning tarixi, mohiyati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lsin. Ijtimoiy soxaga oid darslarda yoshlarni diniy va dunyoviy

xayot masalalarini, bu ikki tushunchaning bir-biriga ta'sirini, ular o'rtasida mo'tadil munosabat bo'lishi zarurligini ochib berish kerak"

Tadqiqot metodologiyasi. Shu o'rinda takidlash kerakki, dunyoviylik ayrim "aqidaparast kimsalarning da'volaridan farqli o'laroq aslo daxriylik emas. Biz bunday to'g'ri va g'arazli tal'qinlarga mutlaqo qarshimiz".[2] Shuningdek, dunyoviy va diniy bilimlarni yoshlar ongi va tafakkuriga singdirishda tarixiy haqiqatni g'oyat muhim ahamyatga ega. Bu eng dolzarb vazifani I. Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida teran va ilmiy jihatdan asoslab bergan. Yosh avlodni g'oyaviy tarbiyalashda "...tarixni chuqur o'rganish, bilish, uni xolisona yoritish, yodgorliklarni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash bizning farzandlik burchimiz, kelajak avlodlar oldidagi farzandlik burchimizdir"[3].

Tahlil va natijalar. Inson zoti yaratilishi va rivojlanishi to'g'risidagi diniy va dunyoviy bilimlar ham yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda muhim o'ringa ega va ahamiyatlidir. Misol uchun, muqaddas kitoblarning barchasida (Avesto, Tavrot, Injil, Qur'on)da Alloh, eng avvalo, erkak jinsiga mansub jonzotni yaratgan. Shu erkak jinsining ma'lum bir qismi (qovurg'asi)dan ayolni yaratgan. Bunday qarash ko'proq diniy mazmun va shaklga ega bo'lsa-da, yoshlarda diniy dunyoqarash bilan birga dunyoviy munosabat, aloqani ham shakllanishiga yordam beradi.

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning buyuk bobokalonimiz, ensiklopedist alloma Abu Rayhon Beruniy Amerika qit'asini ispaniyalik sayyoh Xristofor Kolumbdan qariyb besh asr avval nazariy jihatdan kashf etgan, deydi va "Kolumbda bor alamim manim" degan fikrini ilgari suradi. Noyob tarixiy meros va ma'lumotlar yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan Abu Rayxon Beruniyning ilmiy-dunyoviy merosini, hayot tarzi va na'munalari to'g'risida atroflicha ma'lumotlarni yoshlar ongi va tafakkuriga singdirish nodir meros bo'lib, yuksak ma'naviy-ahloqiy tarbiyaviy axamiyatga ega. O'zbek xalqi, yuqorida aytilganidek, ming yillik tarixiga ega va duyo ahlini lol qoldirgan ilmiy, madaniy yodgorlik. Uni qadriga yetish, unga munosib bo'lishga intilish ham kerak.

"Yoshlar haqida gap ketganda, men doim bir narsani o'ylayman, mana bugungi kunda qancha-qancha yoshlarimiz chet ellarda ta'lim olmoqda, mehnat qilmoqda, albatta, ularning orasida o'z yo'lini topib, begona yurtida xech kimdan kam bo'lmay yashayotganliklari ham ko'p. Lekin Vatan sog'inchi har qanday odamni ham qiynaydi. Shuning uchun ular bilan doimiy aloqa o'rnatish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, yurtimizga qaytishistagida bulganlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni kuchaytirishimiz zarur".[4]

Prezidentimiz Murojaatnomasida ko'rsatilgan bu vazifalar yilma-yil, hatto kunma-kun amalga oshirib borilmoqda. Chet ellarda,

jumladan, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlaridagi og'ir hayot sharoitlarida, taqdir taqozosi bilan yashab qolishga majbur bo'lib, Vatan sog'inchi bilan yashab kelgan minglab fuqarolarimiz Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning insonparvarlik, vatandoshlik farmoni bilan o'z yurtlariga qaytarildi va zaruriy uy-joy, oziq-ovqat bilan ta'minlandi, mehnat sharoitlari, yoshlarni ish bilan ta'minlash, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun o'qish va ta'lim olish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratildi. Shuni ta'kidlash joizki, o'z Vatanga ochiq yuz bilan qaytganlarga respublikamiz Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan vijdon va e'tiqod erkinligi ta'minlandi. Yoshlar uchun diniy va dunyoviy bilimlarni erkin egallash va takomillashtirish imkoniyatlari yaratildi[5].

Xulosa va takliflar. Yosh avlodning ma'naviy-ahloqiy kamolotini tarbiyalashda dunyoviy va diniy bilimlarning o'rni va ahamiyati azal-azaldan ma'lum bo'lgan va e'tirof etilgan. Buni tarixiy ma'lumotlar ham dalillaydi. Masalan, Movarounnahr – ikki daryo oralig'ida, xususan, Iskandar Zulqarnayn urushlaridan oldin ham ilm-fan, madaniyat, shaharsozlik vujudga kelgan, rivojlangan, boshqa xalqlar fan va madaniyati shakllanishiga munosib hissa qo'shgan. Bu haqda taniqli sharqshunos, professor Fozila Sulaymonova o'zining "Sharq va G'arb" nomli asarida g'oyat ishonchli tarixiy faktlar va materiallarni keltirgan. Bu hudud sharqni G'arb bilan, Janubni Shimol bilan bog'laydigan mustahkam markaz – Buyuk Ipak yo'li markazi bo'lgan.

Inson sivilizatsiyasi taraqqiyotida va uning ma'naviy-ahloqiy shakllanishida diniy va dunyoviy tafakkur olam uzra yoyilib borgan. Ularning o'zaro uzviylik bilan va mazmun-mohiyati bir jarayonda shakllanib, rivojlanib borganligini bobomiz Abu Rayhon Beruniy "Avesto" misolida ko'rsatib o'tgan. Bu muqaddas eng qadimiy yozma yodgorlik miloddan oldingi X-XI asrlarda bitilgan bo'lib, unda falsafa, san'at, adabiyot, matematika, tabiatshunoslik, huquq va boshqa fanlar mujassamlashgan va dunyo bo'ylab tarqalgan. O'sha davrlardayoq ilm-fan va madaniyatning yuksak darajada rivojlanishi bugungi tamaddun rivojida muhim asos bo'lmoqda[6].

Uzoq va boy o'tmishga, diniy va dunyoviy ilm, qarash va tafakkurning qadimiy ildizlariga ega bo'lgan xalqimiz bugungi yosh avlodni tarbiyalash, ularni yuksak ma'naviy-ahloqiy tarbiyaga ega qilib voyaga yetkazish borasida ham o'zining mustahkam tajribasiga suyanadi. Yoshlar kamoloti xususida so'z ketganda ularni diniy va dunyoviy bilimga birdek rag'batlantirish, mavjud yuksak qarashlardan o'rinni saboq olishga ruhlanirish yo'li bilan yurtimiz istiqboliga munosib avlod kamolga yetkaziladi. Zotan, "ilmining boshi ma'naviyat va axloqdir. Ular bo'lmagan joyda hech qanday ilmu hunar naf bermaydi"[7]. Diniy va dunyoviy bilimlarni birdek egallashga intilish esa ma'naviy va axloqiy jihatdan yuksalishning muhim omilidir[8].

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22-декабр 2017йил. Тошкет: Ўзбекистон, 2018. 6-бет
2. Каримов И.Миллий истиқлол мафкураси-Халқ этиқоди ва буюк келажакка ишонч.Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт қуриш пировард мақсадимиз.Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 504- бет.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22 декабр, 2017 йил. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 78-бет.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22 декабр, 2017 йил. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 78-бет.
5. Mukhutdinovich, A. N. (2022). In Matters of Spiritual and Moral Education of Children in the Family, the Alienation of Youth to the Older Generation. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(7), 24-26. 2.
6. Mukhutdinovich, A. N. (2022). Intellectual Culture in Increasing the Innovative Activity of Young People-An Important Criterion. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(7), 134-136.
7. Тарбия китоби. –Тошкент, Юрист-медиа маркази, 2015. 263-6.
8. Ahmadiyev, N. M. (2020). Spiritual and moral upbringing of young people is a factor of great prospects. in pedagogika. problemi, perspektivi, innovatsii (pp. 3-6).
9. Akhmadiev, N. (2019). Factors of raising the level of spiritual and social activity in the youth. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(1), 134-140.
10. Akhmadiev, N. M. (2019). Islamic spiritual prosperity of youth in religious education. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 234-236. Vol. 42 (2023):
11. Ahmadiyev, N. M., & Juraev, I. M. (2019). Family reading-a leading factor in the promotion of youth moral education. Nauchniye issledovaniya v Kirgizskoy Respublike, (3), 24-27.
12. Axmadiyev, N. M. "Pavloniya-mo'jizaviy daraxt." European Journal of Interdisciplinary Research and Development 15 (2023): 460-464.
13. Nuriddin M. Akhmadiev. Factors for the health of the spiritual moral world of the younger generation. Oriental Journal of Social Sciences SJIF for 2022: 5.908.